

Toshkent sh.

202__ yil _____

“**Asia Alliance Bank**” ATB (keyinchalik «Bank» deb yuritiluvchi) nomidan 20__ yil __
____dagi _____-sonli) ishonchnomaga asosan harakat qiluvchi
_____ bir tomondan va
“_____” (keyinchalik «Qarz oluvchi» deb yuritiluvchi) nomidan,
_____asosida faoliyat olib boruvchi _____ boshqa
tomondan quyidagilar to‘g‘risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Bank Qarz oluvchiga _____
maqsadlari uchun _____ (_____ so‘m / 00 tiyin) miqdoridagi kredit
mablag‘larini **kredit liniyasi ochmasdan**, _____ (_____) _____ muddatga taqdim etadi.

2. Kreditni berish va to‘lash tartibi

2.1. Kredit Qarz oluvchiga alohida ssuda hisob raqami orqali uning to‘lov hujjatlari asosida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ajratiladi.

2.2. Kredit mablag‘lari ushbu shartnomaning 1-ilovasida ko‘rsatilgan Kreditni qaytarish jadvaliga muvofiq _____ kredit valyutasida qaytariladi. *(Qarz oluvchi bilan kelishilgan differensial/annuitet to‘lash usuli ko‘rsatilsin)*

2.3. Agar kredit bo‘yicha asosiy qarzni qaytarish va foizlarni to‘lash sanalari bank ish kuniga to‘g‘ri kelmasa, unda to‘lovlar keyingi bank ish kuniga o‘tkaziladi.

2.4. Agar qarz oluvchi kreditning asosiy qarzini Kreditni qaytarish jadvali bo‘yicha belgilangan muddatda qaytarmasa, Bank qarzning to‘lanmagan qismini muddati o‘tgan kreditlar hisobiga o‘tkazadi. Qarz oluvchi muddati o‘tkazib yuborilgan qarz majburiyatlarining har bir kuni uchun ushbu shartnomaning 3.1-bandiga muvofiq ravishda foizlar to‘laydi.

3. Kredit uchun to‘lov

3.1. Bank kreditning haqiqatdagi qoldig‘i hisobidan kelib chiqib, yillik ____ (_____) _____ foiz stavkasi miqdorida hisoblanadi. Kreditni qaytarish *(o‘zgarmas/o‘zgaruvchi foiz stavkasi turi ko‘rsatilsin)* jadvaliga ko‘ra, asosiy qarzni qaytarish muddati buzilgan taqdirda, Bank haqiqatda muddati o‘tkazib yuborilgan asosiy qarzga kredit bo‘yicha o‘rnatilgan foiz stavkasining 1.5 barobari miqdorida oshirilgan foiz hisoblaydi. Kredit bo‘yicha foizlar qarz oluvchi tomonidan olingan kreditning valyutasida to‘lanadi.

3.2. Foizlar kreditni o‘zlashtirishning birinchi kunidan boshlab, kredit mablag‘larining amaldagi qoldig‘iga, kunlik ravishda, ish kunining yakunida, har oydagi haqiqatdagi kunlar sonidan kelib chiqqan holda, yilda _____ *(kerakligi tanlanadi 365/360)* kun hisobida hisoblanadi.

Agar kredit mablag‘lari xorijiy valyutada bo‘lsa: Qarz oluvchi mazkur shartnomani imzolash bilan Qarz oluvchi xorijiy valyutada kredit olish bo‘yicha o‘zining tanlovi va bunday tanlovga ko‘ra xorijiy valyuta kursining o‘zgarishi natijasida xorijiy valyutada olingan kredit bo‘yicha milliy valyutadagi qarz yukining oshib ketishi bilan bog‘liq ravishda kelib chiqadigan xavf-xatarlar va oqibatlar Qarz oluvchining tavakkalchiligi hisoblanishi to‘g‘risida Bank tomonidan ogohlantirilganligini va qarz oluvchi bunday oqibatlar yuzaga kelishi mumkinligidan to‘liq xabardor ekanligini tasdiqlaydi.

3.3. Qarz oluvchi, kredit ajratilgandan keyin 20__ yilning _____ oyidan boshlab, har oyning _____ sanasida, Bankka ushbu shartnomaga muvofiq kreditdan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni to‘laydi.

Hisoblangan foizlar belgilangan muddatda to‘lanmagan hamda ular bo‘yicha muddati o‘tgan qarzдорliklar yuzaga kelgan hollarda, Qarz oluvchi Bankka kechiktirilgan har bir kun uchun,

kechiktirilgan to'lov summasining 0,15 % miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

3.4. Kredit bo'yicha asosiy qarz va foizlarni qoplash, Bank tomonidan Qarz oluvchining to'lov topshiriqnomalarini bajarish, Bankning to'lov talabnomalari va/yoki memorial orderi orqali Qarz oluvchining depozit hisobvarag'idan mablag'larni mustaqil ravishda yechib olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.5. Agar ushbu shartnoma bo'yicha qarz oluvchi tomonidan pul majburiyatlarini bajarish kunida to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar Bankning tegishli hisob raqamida bo'lmasa yoki kelib tushmasa, kreditni qaytarish va undan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni to'lash bo'yicha majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash maqsadida Qarz oluvchi Bankka bankdagi va boshqa banklarda ochilgan hisob varaqlardagi mablag'larini qarzdorliklarni qoplash uchun yo'naltirishga hamda yechib olishga ushbu shartnomani imzolash orqali topshiriq beradi.

3.6. Qarz oluvchi hisob raqamiga kelib tushadigan mablag'lar uning ushbu shartnoma bo'yicha qarzdorliklarini qoplash uchun quyidagi tartibda yo'naltiriladi:

- penyalarni qoplash bo'yicha to'lovlar;
- kredit foizlari bo'yicha kechiktirilgan to'lovlar;
- kreditning asosiy qarzini qoplash bo'yicha kechiktirilgan to'lovlar;
- muddati o'tgan asosiy qarzga ko'paytirib hisoblangan foizlar bo'yicha to'lovlar;
- kredit bo'yicha muddatli foiz to'lovlari ;
- kredit bo'yicha muddatli asosiy qarzni so'ndirish uchun to'lovlar.

Agar amalga oshirilgan to'lov summasi Qarz oluvchiga ajratilgan kredit bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lmasa, Qarz oluvchining qarzdorligi quyidagi navbatda qoplanadi:

- kreditning asosiy qarzini qoplash bo'yicha kechiktirilgan to'lovlar va kredit foizlari bo'yicha kechiktirilgan to'lovlar mutanosib ravishda;
- kredit bo'yicha muddatli foiz to'lovlari va kredit bo'yicha muddatli asosiy qarzni so'ndirish uchun to'lovlar ;
- muddati o'tgan asosiy qarzga ko'paytirib hisoblangan foizlar bo'yicha to'lovlar va penyalarni qoplash bo'yicha to'lovlar ;
- kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari;

3.7. Asosiy qarzni qaytarish bo'yicha majburiyat Kreditni qaytarish jadvalida belgilangan muddatlardan oldin bajarilishi mumkin.

Kreditni qaytarish jadvalida belgilangan muddatlardan oldin asosiy qarzni qaytarish uchun kelib tushgan to'lovlar, Bank tomonidan Kreditni qaytarish jadvalida belgilangan va muddati bo'yicha yaqin qolgan asosiy qarz bo'yicha majburiyatlarni qoplashga yo'naltiriladi.

3.8. Kredit bo'yicha qarzdorlikni undirish to'g'risida sudning hal qiluv qarori chiqarilganda sud qarorida ko'rsatilgan, kredit bo'yicha undiriladigan summaga nisbatan foizlar va penya hisoblanishi to'xtatiladi.

3.9. Kredit bo'yicha moliyalashtirishni boshlash muddatlari yoki ushbu shartnomada o'zgaruvchan foiz stavkasi ko'zda tutilgan bo'lsa, uning o'zgarishi, ushbu shartnomaning shartlari qayta ko'rib chiqilishi, Qarz oluvchi tomonidan kredit qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan kredit bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq kredit to'lovlarining miqdorlari o'zgarganda Kreditni qaytarish jadvali yangidan rasmiylashtiriladi va undan oldin mavjud bo'lgan kreditni qaytarish jadvali o'z kuchini yo'qotadi.

4. Kreditning qaytarilishini ta'minlash

4.1. Ushbu shartnoma bo'yicha berilgan kredit quyidagilar bilan ta'minlanadi:

a) Umumiy qiymati (_____/00) so'm bo'lgan Qarz oluvchiga tegishli bo'lgan _____ garovi. Bank va Qarz oluvchi o'rtasida 20 yil _____da imzolangan 1-sonli garov mulki qiymatini kelishish dalolatnomasiga muvofiq garov predmetining kelishilgan garov qiymati _____ (_____/ 00) so'mni

tashkil etadi. Kredit ta'minoti sifatida taqdim etilayotgan yuqorida ko'rsatilgan garov predmeti bo'yicha garov shartlari alohida Garov shartnomasi bilan belgilanadi;

b) Umumiy qiymati _____ (_____ / 00) so'm bo'lgan, 3-shaxs (garovga qo'yuvchi) –“_____” ga tegishli _____ garovi. Bank, Qarz oluvchi hamda Garovga qo'yuvchi o'rtasida 20__ yil _____ da imzolangan 1-sonli garov mulki qiymatini kelishish dalolatnomasiga muvofiq garov predmetining kelishilgan garov qiymati _____ (_____ / 00) so'mni tashkil etadi.

Kredit ta'minoti sifatida taqdim etilayotgan yuqorida ko'rsatilgan garov predmeti bo'yicha garov shartlari alohida Garov shartnomasi bilan belgilanadi;

d) Mulk huquqi asosida mulkdor “_____”ga tegishli bo'lgan, _____ shaxri, _____ tumani, _____-uy manzilida joylashgan, umumiy qiymati Bank va Qarz oluvchi (Garovga qo'yuvchi - agar garovga qo'yuvchi 3-shaxs bo'lsa) o'rtasida 20__ yil _____ da imzolangan 1-sonli garov mulki qiymatini kelishish dalolatnomasiga muvofiq garov mulkining kelishilgan garov qiymati _____ (_____ / 00) so'mni tashkil etadigan ko'chmas mulk garovi (ipoteka).

Garovning (ipoteka) o'ziga hos shartlari notarial tasdiqlangan garov (ipoteka) shartnomasi bilan belgilanadi. Qarz oluvchi, Garov predmetini sug'urtalash shartlari Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali sug'urtalash majburiyatini o'ziga oladi. Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urta hodisasi sodir bo'lgan taqdirda Foyda ko'ruvchi Bank hisoblanadi. Qarz oluvchi tomonidan Garov predmeti yuzasidan o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va notarial tartibda rasmiylashtirilgan garov (ipoteka) shartnomasi Bankka mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab _____ kalendar kuni ichida/kredit mablag'larini taqdim etgunga qadar/taqdim etilishi lozim.

e) Bank va Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchi (agar garovga qo'yuvchi 3-shaxs bo'lsa) o'rtasida 20__ yil _____ da imzolangan 1-sonli garov mulki qiymatini kelishish dalolatnomasiga muvofiq, garov mulkining kelishilgan garov qiymati _____ (_____ / 00) so'mni tashkil etadigan, nominal qiymati _____ (_____, 00 tiyin) so'm bo'lgan, “Emitent nomi” tomonidan chiqarilgan hamda “Aksiya sohibi”ga tegishli bo'lgan 1000 dona oddiy, egasi yozilgan/yoziilmagan Aksiyalar garovi (keyinchalik Garov predmeti). Kredit ta'minoti sifatida taqdim etilayotgan yuqorida ko'rsatilgan garov predmeti bo'yicha garov shartlari alohida Garov shartnomasi bilan belgilanadi;

f) “_____”(keyinchalik kafillik beruvchi)ning umumiy summasi _____ (_____ 00 tiyin) bo'lgan Kafilligi. Kafillikning o'ziga xos shartlari Bank, Qarz oluvchi va Kafil o'rtasida tuziladigan tegishli Kafillik shartnomasida belgilanadi.

g) Bank va Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchi (agar garovga qo'yuvchi 3-shaxs bo'lsa) o'rtasida 20__ yil _____ da imzolangan 1-sonli garov mulki qiymatini kelishish dalolatnomasiga muvofiq garov predmetining kelishilgan garov qiymati _____ (_____ / 00) so'mni tashkil etgan, 20__ yilda ishlab chiqarilgan, davlat raqami _____, rangi _____, dvigatel raqami _____, kuzov raqami _____ bo'lgan “_____”ga tegishli bo'lgan, _____rusumli avtomashina/maxsus texnika garovi. Garovning o'ziga xos shartlari notarial tasdiqlangan garov shartnomasi bilan belgilanadi. Qarz oluvchi, Garov predmetini sug'urtalash shartlari Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali sug'urtalash majburiyatini o'ziga oladi. Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urta hodisasi sodir bo'lgan taqdirda Foyda ko'ruvchi tomon Bank hisoblanadi. Qarz oluvchi tomonidan Garov predmeti yuzasidan o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va notarial tartibda rasmiylashtirilgan garov shartnomasi Bankka mazkur shartnoma imzolanganidan boshlab, _____ kalendar kuni ichida/kredit mablag'larini taqdim etilgunga qadar/taqdim etilishi lozim;

h) Qarz oluvchiga ajratilayotgan kredit hisobiga 20__ yil _____dagi _____-sonli shartnomaga asosan “Sotuvchidan” _____ (_____) so'mga sotib olinayotgan avtomashina/maxsus texnika (Keyinchalik garov predmeti) garovi. Garov predmeti

kelishilgan garov qiymatida - _____
(_____ / 00) so'm qabul qilinadi.

Garovning o'ziga xos shartlari notarial tasdiqlangan garov shartnomasi bilan belgilanadi. Qarz oluvchi, Garov predmetini sug'urtalash shartlari Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali sug'urtalash majburiyatini o'ziga oladi. Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urta xodisasi sodir bo'lgan taqdirda Foyda ko'ruvchi tomon Bank hisoblanadi. Qarz oluvchi tomonidan Garov predmeti yuzasidan o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va notarial tartibda rasmiylashtirilgan garov shartnomasi Bankka mazkur shartnoma imzolanganidan boshlab, ____ kalendar kuni ichida/kredit mablag'lari taqdim etilgunga qadar/taqdim etilishi lozim;

i) " _____ "Sug'urta Kompaniyasi (keyinchalik "Sug'urta qildiruvchi") ning _____ so'm qiymatidagi, kreditning qaytmasligi xavf-xataridan Sug'urta polisi. Ushbu shartnoma imzolagan sanadan boshlab ____ kalendar kuni mobaynida/kredit mablag'lari berilgunga qadar Bank Sug'urta qildiruvchi bilan qiymati _____so'm bo'lgan kreditning qaytmasligi xavf-xatari yuzasidan sug'urta shartnomasini tuzadi va sug'urta mukofotini Sug'urta qildiruvchiga to'lab beradi, Qarz oluvchi esa Bank tomonidan to'langan sug'urta mukofoti summasini o'sha kunning o'zida qoplab beradi.

j) so'm miqdoridagi Garov depoziti.

4.2. Agar Qarz oluvchi ushbu shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda kredit bo'yicha asosiy qarzni va/yoki kredit foizlarini to'lash qobiliyatiga ega bo'lmasa/to'lovlarni amalga oshira olmasa, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Bank undiruvni mazkur shartnomaning 4.1-bandida ko'rsatilgan Kredit ta'minotiga qaratish bo'yicha mutloq huquqqa ega bo'ladi.

4.3. Garov predmeti shikastlanishi, yo'qotilishi yoki rekonstruksiya qilinishi (o'zgartirilishi) va/yoki uning bozor qiymati o'zgarganda, Bank ta'minot shartlarini qayta ko'rib chiqishni, jumladan, garov predmetini almashtirish, qo'shimcha Ta'minot taqdim etishni yoki garov ta'minoti qiymatini tasdiqlashni talab qilishga haqli, Qarz oluvchi esa Bankning talabiga ko'ra garov shartnomasiga qo'shimcha kelishuvni tuzishni va garov predmeti qiymatini kelishish bo'yicha yangi dalolatnomani imzolash majburiyatini oladi. Ushbu dalolatnoma tegishli garov shartnomasining ilovasi hisoblanadi.

Bunda garov predmetining qiymati mustaqil konsalting kompaniyasining taqdim etilgan hisobot ma'lumotlariga tayanib, Tomonlarning kelishuv dalolatnomasi asosida belgilanadi. Agar taraflar baholovchi tashkilotni tanlash yoki qiymat yuzasidan kelishuvga erishmasa, u holda istalgan taraf mustaqil baholash o'tkazilishi tashabbusi bilan chiqishi mumkin. Baholash o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar, agar Tomonlar boshqacha kelishilmagan bo'lsa, baholash tashabbusi bilan chiqqan Tomon tarafidan qoplanadi.

Agar Qarz oluvchi ushbu qo'shimcha kelishuvni tuzishdan asossiz ravishda bosh tortsa, Bank Qarz oluvchini mazkur majburiyatni bajarishga majbur etish talabi bilan sudga murojaat qilishga haqli.

4.4. Undiruv garov/ta'minot predmetiga (predmetlariga) va/yoki uning qismiga (qismlariga) qaratilganda, Bank bir tomonlama tartibda birinchi navbatdagi undiruv obyektini o'z xohishiga ko'ra tanlash huquqini o'zida saqlab qoladi. Undiruvni garov/ta'minot obyektlaridan biriga va/yoki uning qismiga qaratish Bankning undiruvni garov/ta'minot obyektining boshqa obyektiga (obyektlariga) va/yoki uning qismiga qaratish huquqini cheklamaydi

4.5. Qarz oluvchi mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq undiruvga qaratilishi mumkin bo'lgan o'ziga tegishli barcha mol-mulki bilan javobgar hisoblanadi

4.6. Agar Qarz oluvchi mazkur Shartnoma imzolanganidan so'ng amaldagi qonunchilik va Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq Bankning aloqador shaxsi sifatida e'tirof etilsa, Bank tomonidan ushbu to'g'rida xabarnoma yuborilgan sanadan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida Bankning ichki talablari bilan belgilangan minimal darajadan kam bo'lmagan miqdorda Ta'minot taqdim etish majburiyatini oladi.

Belgilangan muddatda Ta'minot taqdim etilmagan taqdirda, Bank ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega bo'ladi

4.7. Ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishini ta'minlash uchun qabul qilingan garov ta'minoti Qarz oluvchi tomonidan quyidagi barcha shartlar bajarilgandan so'ng Shartnoma bo'yicha to'lanmagan majburiyatlar qoldig'iga mutanosib ravishda qisman ozod qilinishi mumkin:

- ta'minotni ozod qilish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish sanasida Qarz oluvchi va/yoki u bilan affillangan shaxslarda "ASIA ALLIANCE BANK" ATB oldidagi muddati o'tgan qarzдорlik mavjud bo'lmasligi;

- ta'minotni ozod qilish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilgan sanada Qarz oluvchida 2-son kartoteka mavjud bo'lmasligi;

- garovga qo'yuvchilar va/yoki kafillar - uchinchi shaxslarga nisbatan bankrotlik (tugatish, sanatsiya yoki tashqi boshqaruv) taomili joriy etilmagan hollarda;

- Qarz oluvchiga nisbatan Bank tomonidan qo'zg'atilgan sud jarayonlari mavjud emasligi.

4.8. Shartnoma bo'yicha Mijozning majburiyatlari qisman bajarilgan (so'ndirilgan) taqdirda, Bank Mijoz majburiyatlarining qolgan summasi majburiyatlarni to'liq bajarish uchun yetarli bo'lgan likvidli ta'minot bilan ta'minlangan bo'lsa, ta'minotning bir qismini ozod qilishga haqli.

Ta'minotni bo'shatishda Bank ta'minotning likvidligini baholashga asoslanadi va birinchi navbatda eng kam likvidli ta'minotni bo'shatishga haqli bo'lib, ta'minot tarkibida qarz qoldig'ining tegishli ravishda qoplanishini ta'minlaydigan eng likvidli aktivlarni saqlab qoladi.

Likvidlikni baholash va ta'minotni bo'shatish to'g'risidagi qaror Bank tomonidan ta'minotni baholashning ichki usullari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida bir tomonlama tartibda qabul qilinadi.

4.9. Qarz oluvchining majburiyatlar bo'yicha qabul qilingan garov ta'minotini qisman ozod qilish to'g'risidagi arizalari Bankning vakolatli organi tomonidan ko'rib chiqiladi va u ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 (o'n) bank ish kunidan kechiktirmay uni qondirish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. qaror qabul qilingan kundan boshlab 3 (uch) bank ish kuni ichida Qarz oluvchiga yetkaziladi.

4.10. Qarz oluvchining garov ta'minotini qisman ozod qilish to'g'risidagi arizasini qanoatlantirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinganda, Qarz oluvchiga rad etish sabablari ko'rsatilgan holda yozma xabarnoma yuboriladi.

5. Bankning majburiyatlari

Bank quyidagi majburiyatlarni oladi:

5.1. Ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan miqdorda hamda shartlarda Qarz oluvchiga kredit mablag'larini ajratish.

Qarz oluvchi va uchinchi shaxslar tomonidan ta'minot bo'yicha ushbu shartnomaning 4-bandiga muvofiq Qarz oluvchi va uchinchi shaxslar tomonidan kredit ta'minoti bo'yicha Bankka taqdim etilishi yuzasidan belgilangan barcha majburiyatlar bajarilgan hamda Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashuvi alomatlari sezilmagan hollarda Bank o'zining majburiyatlarini bajaradi.

5.2. Ushbu shartnomaga muvofiq kreditning foydalanilgan qismi bo'yicha foizlarni hisoblash.

5.3. Olingan kreditning hisobini yuritish uchun, Qarz oluvchining nomiga ssuda hisob raqamini ochish va lozim hollarda bu hisob aylanmasi ko'chirmasi ma'lumotlarini Qarz oluvchiga taqdim etib borish. Qarz oluvchining hisob-varag'i bo'yicha bank ko'chirmasi agar aniq xatoliklar mavjud bo'lmasa, ushbu Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchining to'lov majburiyatlari paydo bo'lishining yoki bajarilishining yakuniy dalili hisoblanadi.

5.4. Qarz oluvchiga Bank tomonidan kreditni muddatidan oldin qaytarib olish asoslari va sabablari bo'yicha xabar berish.

6. Bankning huquqlari

6.1. Kredit berish jarayonida Bank Qarz oluvchining moliya-xo'jalik faoliyatini, buxgalteriya hisobi va hisoboti holatini, kreditdan maqsadli foydalanishni tekshirishga xaqli.

6.2. Bank kreditlashning butun davri mobaynida kredit ta'minoti va uning saqlanishi holatini, ta'minotning yetarliligi va likvidligini, shuningdek garov shartnomasi bo'yicha Qarz oluvchi tomonidan o'ziga olingan majburiyatlarning bajarilishini vaqti-vaqti bilan tekshirib boradi. Tekshiruvlarni o'tkazish davriyligi Bank tomonidan belgilanadi. Bank amaldagi qonunchilikka muvofiq monitoring o'tkazish maqsadida soliq organlari, kadastr, statistika, sud, bojxona, davlat reyestrari, sug'urta tashkilotlari hamda boshqa tegishli idoralarning yagona elektron ma'lumotlar bazalaridan Qarz oluvchiga oid moliyaviy, huquqiy va mulkiy ma'lumotlarni olish, tahlil qilish va foydalanish huquqiga ega.

6.3. Agar to'lov hujjatlari mazkur shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid ravishda rasmiylashtirilgan taqdirda, Bank Qarz oluvchiga uning ssuda hisob raqamidan to'lovlarni o'tkazib berishdan bosh tortish huquqiga ega.

6.4. Kredit bo'yicha asosiy qarz yoki hisoblangan foizlarni to'lash muddati kelganida, Bank asosiy qarz, hisoblangan foizlar va kredit bo'yicha boshqa to'lovlarni, jumladan ushbu shartnoma shartlari asosida yuzaga keladigan boshqa harajatlar (valyuta kursi farqida yo'qotishlarni, komission to'lovlarni, sug'urta mukofoti va sug'urta to'lovlarini va boshqalar)ni undirish uchun Qarz oluvchining bankda ochilgan talab qilib olgungacha bo'lgan depozit hisob varaqlaridan, agar ularda mablag'lar mavjud bo'lmagan xollarda boshqa banklarda ochilgan barcha boshqa xisobvaraqlardan mablag'larni so'zsiz, xech qanday shartlarsiz va akseptsiz ravishda ko'chirish bo'yicha mutloq huquqqa ega bo'ladi.

6.5. Quyidagi xollarda:

- ushbu Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchi zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilmasligi/to'liq bajarilmasligi va/yoki buzilishi;
- qarz oluvchi moliyaviy axvolining yomonlashuvi, Qarz oluvchining bankrotligi;
- kredit ta'minotining likvidligi, qiymatini va xaqiqiylikining yo'qotilishi, garov predmetining qisman yoki to'liq zararlanishi;
- Qarz oluvchining moliyaviy holatini o'rganish va kredit monitoringini o'tkazish uchun Bank tomonidan so'ralgan ma'lumotlarning qarz oluvchi tomonidan Bankka ishonchsiz/noto'g'ri taqdim etilishi yoki ma'lumotlarni taqdim etishdan bosh tortish holatlarining aniqlanishi;
- buxgalteriya hisobi va hisobotining e'tiborsiz tashlab qo'yilishi, Bankka hisobotlarning taqdim etilmasligi, Qarz oluvchining Bank monitoringidan bosh tortishi;
- bank tomonidan kredit resurslaridan maqsadsiz foydalanish holatlari aniqlanishi;
- asosiy qarz, foizlarni o'z vaqtida to'lamasligi;
- Qarz oluvchining Bankni yozma ravishda ogohlantirmagan holda o'z tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgartirilishi, qayta tashkil etilishi (boshqa korxonalarga qo'shilib ketilishi, ajralib chiqishi, almashtirilishi), tugatilishi;
- Qarz oluvchi yoki uchinchi shaxslarga nisbatan Qarz oluvchi bilan bog'lik holda biron-bir tarzda da'vo yoki ish qo'zg'atilishi natijasida Qarz oluvchining har qanday mol-mulki o'z kreditorlari orasida taqsimlanishi mumkin bo'lsa hamda bu holat qarz oluvchining mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi;
- kreditni qaytarmaslik xavfini oshiradigan har qanday omillarning paydo bo'lishi;
- Sug'urta kompaniyasining sug'urta qoplamasini to'liq yoki qisman to'lash bo'yicha majburiyatlarining tugatilishi;
- kreditning qaytarilmaslik xavfi yuzasidan sug'urta shartnomasining bekor qilinishi yoki amal qilishining tugashi;
- Qarz oluvchi tomonidan pul aylanmalarining asosiy qismini "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tizimida amalga oshirmasligi (ushbu talablar Qarz oluvchining moliyaviy holatini baholash uchun xizmat qiladi).

Bank quyidagi huquqlarga ega:

- kredit bo'yicha asosiy qarz, ular bo'yicha hisoblangan foizlar va/yoki boshqa to'lovlarni to'lashga yo'naltirish uchun Qarz oluvchining har qanday hisobvarag'idan mablag'larni so'zsiz ravishda hisobdan chiqarish;

- ushbu shartnoma bo'yicha yangi summalarni va/yoki yangi kreditlarni berishni to'xtatish;
- kreditni muddatidan oldin qaytarishni talab qilish, shu jumladan kreditni muddatidan oldin qaytarishni to'liq yoki qisman garov predmetiga, Kafilga va/yoki Sug'urta qiluvchiga qaratish. Ushbu holatda Bank Qarz oluvchiga kredit bo'yicha majburiyatlarni to'liq bajarish uchun 5 (besh) kalendar kunlik muddat bergan holda kreditni muddatidan oldin qaytarish to'g'risidagi talabnoma yuboradi.

7. Qarz oluvchining majburiyatlari

Qarz oluvchi quyidagi majburiyatlarni oladi:

7.1. Kreditdan foydalanish jarayonida muddatlilik, qaytarishlilik, maqsadlilik, to'lovlilik hamda ta'minlanganlik kabi kredit berishning asosiy tamoyillariga rioya qilish.

7.2. Kreditdan ushbu shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan maqsadlar uchun foydalanish.

7.3. Kreditdan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni muntazam va o'z muddatida to'lab borish, olingan kredit va foizlarni ushbu shartnomada belgilangan muddatlarda qaytarish.

7.4. Boshqa banklarda hisobraqamlar ochilgan taqdirda, ushbu hisob raqamlar ochilgan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kunidan oshmagan muddat ichida Bankni xabardor qilish.

7.5. O'z tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishi, korxonani qayta tashkil etish yoki tugatish yuzasidan kutilayotgan o'zgarishlar bo'yicha Bankni oldindan ogoxlantirish, shuningdek, Bank bilan oldindan kelishmasdan hamda uning yozma ruxsatini olmasdan turib ushbu Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchiga yuklatilgan majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakatlarni amalga oshirmaslik.

7.6. Kredit ta'minotini kredit summasining kamida 125% (aloqador shaxslarning kreditlari bo'yicha 130%) miqdorida bo'lishini ta'minlash.

7.7. Bankning oldindan roziligini olmasdan turib, uchinchi shaxslar oldida majburiyatlarni bajarish kafolati sifatida o'zining har qanday mol-mulkini garovga taqdim qilmaslik, uchinchi shaxslarning majburiyatlari bo'yicha Kafil bo'lmaslik yoki Kafolat bermaslik.

7.8. Bank tomonidan garovga qabul qilinadigan mulkni Bankka ma'qul bo'lgan shartlar asosida sug'urtalash.

Bank tomonidan sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lab berilgan sug'urta to'lovlarini xarajatlarni qoplab berilishi talab qilingan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni davomida qoplab berish.

7.9. Bankning talabiga ko'ra har qanday moliyaviy, buxgalteriya va boshqa hujjatlarni hamda ma'lumotlarni zudlik bilan taqdim etish, zarur bo'lgan hollarda Bankning o'ziga yoki bank ishonch bildirgan tashkilotga bunday hujjatlar bilan joyiga borib tanishish va tekshirishga, shuningdek, mazkur shartnomaning 6.2-bandida ko'rsatib o'tilgan holatlarga oydinlik kiritish yuzasidan boshqa harakatlarni amalga oshirishga shart-sharoit yaratib berish.

Ushbu shartnomaning 6.2-bandida ko'rsatib o'tilgan Bankning nazorat funksiyalarini amalga oshirish uchun, Bankka quyidagilarni:

- barcha ilovalarini o'z ichiga olgan har choraklik buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni;

- asosiy vositalari yoyilmasi (balans qiymati ko'rsatilgan holda);

- muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha choraklik yoyilma ma'lumotlarni;

- bankning talabiga ko'ra Qarz oluvchining moliya-xo'jalik faoliyati yuzasidan boshqa kerakli ma'lumotlarni taqdim etib borish hamda Bank xodimlariga Qarz oluvchining moliya-xo'jalik faoliyatiga taalluqli bo'lgan hujjatlarini tekshirishga ruxsat berish.

Bankka taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarning qonuniy va to'g'riligi yuzasidan ma'suliyat va javobgarlik Qarz oluvchi zimmasiga yuklatiladi.

7.10. Tekshirishlarni amalga oshirish uchun Bank xodimlariga xizmat xonalariga, ishlab chiqarish, omborxona va boshqa binolarga kirishlariga to'sqinlik qilmaslik va barcha sharoitlarni yaratib berish. Tekshirishlarni o'tkazish vaqti va sanalari Bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

7.11. Byudjet hamda byudjetdan tashqari fondlar va kontragentlar oldida yuzaga kelgan muddati o'tgan qarzdorlikning kelib chiqishi va miqdori haqida darxol Bankka xabar qilish.

7.12. Korxona rekvizitlari (nomi, joylashgan manzili va pochta manzili), Rahbariyat va ta'sischi tarkibida yuzaga kelishi kutilayotgan o'zgarishlar bo'yicha Bankka yozma ravishda, shuningdek bunday o'zgarishlar amalga oshirilgan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kuni ichida tegishli o'zgarishlarning o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish.

7.13. Ushbu shartnoma doirasida Qarz oluvchi majburiyatlarning to'liq va o'z vaqtida bajarilishi qobiliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha hodisalar va omillarni Bankka ma'lum qiladi.

7.14. Kreditning qaytarilishini ta'minlash uchun, Bank talabi bo'yicha Qarz oluvchi quyidagi hollarda, qo'shimcha ta'minot taqdim etish majburiyatini oladi:

- Qarz oluvchi moliyaviy ahvolidan yomonlashuvi;
- Kafilning yoki Sug'urta qiluvchi moliyaviy ahvolidan yomonlashuvi yoki bankrotligi;
- garov ta'minoti qiymatining kamayishi (bozor narxining pasayishi), garov predmetining qisman yoki to'liq zarar ko'rishi yoki yo'qotilishi;
- sug'urta shartnomasining bekor qilinishi;
- kreditning qaytmaslik xatarini oshiruvchi boshqa omillarning yuzaga kelishi.

Yuqorida ko'rsatilgan holatlarda, shuningdek, garovga qo'yilgan mol-mulkning yo'qotilishi va/yoki qisman zararlanishi va/yoki uning bozor qiymatining pasayishi holatlarida, Qarz oluvchi bir paytning o'zida Garovga qo'yuvchi bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'iy nazar, Bank tomonidan tegishli talab yuborilgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kun ichida Bankni qoniqtiradigan darajadagi qo'shimcha ta'minotni taqdim etishi shart.

7.15. Qarz oluvchi moliyaviy holatining yomonlashuviga hamda Bank oldidagi o'z majburiyatlarini bajara olmaslik xavfini ortishiga olib keluvchi har qanday majburiyat va vazifalarni qabul qilmaslik.

7.16. Bunday majburiyatlar bajarilgunga qadar 5 kalendar kun oldindan, Qarz oluvchi bankdagi o'z hisob raqamlarida byudjet va uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlardan holi bo'lgan hamda Bank krediti bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarilishini ta'minlashga yetadigan miqdorda minimal darajadagi mablag'lar qoldig'i mavjud bo'lishini ta'minlashi shart.

7.17. Qarz oluvchining tashabbusi bilan kredit shartlari o'zgargan taqdirda, Bank Tariflariga muvofiq bank komissiyasini to'lash.

7.18. Pul aylanmalarining asosiy qismini "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tizimida amalga oshirish, qarz oluvchining moliyaviy holatini baholash maqsadida.

8. Qarz oluvchining huquqlari

Qarz oluvchi:

8.1. Ushbu shartnoma shartlariga muvofiq kredit olish va ushbu shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatib o'tilgan kredit muddati davomida kreditdan foydalanish.

8.2. Bankni yozma ravishda ogohlantirgan va bank bilan kredit bo'yicha barcha hisob kitoblarni amalga oshirgan holda qisman yoki to'liq ravishda kreditdan foydalanmaslik.

8.3. Kredit qarzdorligini qisman yoki to'liq ravishda o'z muddatidan oldin qaytarish. Kreditni muddatidan oldin qaytarish mazkur shartnomaning 3.7. bandida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

8.4. Shartnomaning 4.7-4.10-bandlarida nazarda tutilgan tartibda, Shartnoma bo'yicha to'lanmagan majburiyat summasidan ortiq bo'lgan garov ta'minoti summasini Bank tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha garov ta'minotiga qo'yilgan talablardan kelib chiqib kamaytirishni talab qilish huquqiga ega.

9. Tomonlarning majburiyatlari

9.1. Shartnoma majburiyatlari tomonlarning biri tomonidan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, ushbu tomon boshqa tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab beradi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

9.2. Mazkur shartnomaning 7.6, 7.7., 7.8., 7.9-bandlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni buzganlik uchun Bank Qarz oluvchidan amaldagi bazaviy hisoblash miqdorining 5 barobari miqdorida jarima undirishga xaqli.

10. Tomonlarning kafolatlari va tasdiqlari

10.1. Taraflar Shartnomaning barcha shartlari (tomonlarning huquq va majburiyatlari, berilgan kafolatlar bo'yicha majburiyatlarni bajarish shartlari, foizlar miqdori va tartibi va boshqalar) ikkala Taraf tomonidan kelishilganligini hamda ularning huquq va manfaatlarini cheklamasligini tasdiqlaydilar. Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha ustamalar, foizlar va boshqa to'lovlar bilan tanishib chiqqanligini va ularga roziligini bildiradi. Ushbu hujjatni o'z ixtiyori bilan, ongli ravishda imzolaganligini va uning huquqiy oqibatlarini to'liq anglaganligini tasdiqlaydi.

10.2. Qarz oluvchi quyidagilarni kafolatlaydi va tasdiqlaydi:

- u O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tegishli tartibda tashkil etilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblanadi;
- ushbu Shartnomani tuzish va uning barcha shartlari, shuningdek uni bajarish Qarz oluvchining ta'sis hujjatlariga zid emas;
- ushbu Shartnomani imzolagan shaxslar Qarz oluvchining ta'sis hujjatlariga ko'ra bunga tegishli vakolatga ega va Qarz oluvchi Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish huquqiga ega;
- Bank tomonidan kafolat berish uchun taqdim etilgan/etiladigan barcha hujjatlar va ma'lumotlar ular taqdim etilgan sanada haqiqiy va ishonchli deb hisoblanadi/bo'ladi;
- Bankka taqdim etilgan moliyaviy hisobotlar haqiqiy bo'lib, Qarz oluvchining moliyaviy holatini to'g'ri aks ettiradi;
- moliyaviy hisobotlarda yoki Bankka taqdim etilgan boshqa hujjatlarda aks ettirilgan majburiyatlardan tashqari, uchinchi shaxslar foydasiga berilgan kafolatlar ham dahil, boshqa haqiqiy va shartli majburiyatlarga ega emas.

11. Korrupsiyaga qarshi shartlar

11.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari biron-bir noqonuniy ustunlik yoki boshqa foyda olish maqsadida ushbu shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir ko'rsatish uchun har qanday shaxslarga bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari yoki qimmatliklar to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar, to'lashga ruxsat bermaydilar.

11.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari pora berish/olish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish kabi amaldagi qonunchilik bilan tavsiflanadigan harakatlarni, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi amaldagi qonunchilik va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar.

11.3. Ushbu Shartnomaning har bir tarafi boshqa taraf xodimlarini har qanday yo'l bilan, jumladan pul mablag'lari, sovg'alar berish, ular uchun bepul ish (xizmat) bajarish va xodimni muayyan qaramlikka soladigan hamda ushbu xodim tomonidan uni rag'batlantiruvchi taraf manfaatiga biron-bir harakat bajarilishini ta'minlashga qaratilgan boshqa usullar bilan rag'batlantirishdan voz kechadi.

11.4. Biron-bir tarafda korrupsiyaga qarshi shartlarning buzilishi sodir bo'lgani yoki sodir bo'lishi mumkinligi haqida shubha paydo bo'lsa, tegishli taraf boshqa tarafni yozma ravishda yoki ishonch telefoni orqali og'zaki ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi.

11.5. Taraflar Shartnomaning amal qilish davrida, Shartnomaning amal qilish muddati davomida va ushbu muddat tugagandan so'ng korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etmaslikka kelishib oladilar.

11.6. Taraflar Shartnomaning korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarida ko'rsatilgan korrupsiyaning oldini olish choralari tan oladilar va ularga rioya qilish bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

12. Boshqa shartlar

12.1. Ushbu Shartnoma doirasida Bank va Qarz oluvchi o'rtasidagi yozishmalarni almashish vositasi sifatida tomonlarning rekvizitlarida ko'rsatilgan yuridik (pochta) manzillari bo'yicha pochta (kuryerlik) aloqasi qo'llaniladi.

Birinchi tomondan ikkinchi Tomonga so'nggi ma'lum manzilga yuborilgan xabarnomalar, xabarlar va boshqa hujjatlar quyidagi holatlarda tegishli tarzda yetkazilgan hisoblanadi:

shaxsan yoki kuryer orqali topshirilganda - oluvchining vakolatli vakili imzosi bilan tasdiqlangan qabul qilingan sanadan boshlab;

buyurtma pochta jo'natmasi orqali yuborilganda - pochta shtempeli bo'yicha aniqlanadigan jo'natilgan sanadan boshlab uchinchi ish kunida.

Tomonlar ushbu Shartnomada ko'rsatilgan yoki Bank tomonidan taqdim etilgan elektron pochta manzillari, telefon raqamlari, internet-banking tizimlari va boshqa elektron aloqa kanallari faqat tezkor (axborot) o'zaro muloqot uchun ishlatilishini va yuridik ahamiyatga ega xabarlarni almashishning rasmiy vositasi sifatida tan olinmasligini kelishib oldilar.

Tomonlardan har biri o'zining yuridik (pochta) manzili o'zgarganligi to'g'risida boshqa Tomonni darhol yozma ravishda xabardor qilishi shart. Bunday xabar olingunga qadar ma'lum bo'lgan oxirgi manzilga yuborilgan xat-xabar tegishli tarzda yetkazib berilgan deb hisoblanadi.

Tomonlarning xat-xabarlarni yuborish uchun foydalaniladigan yuridik (pochta) manzillari ushbu Shartnomaning "Tomonlarning rekvizitlari va imzolari" bo'limida ko'rsatiladi va Bank yoki Qarz oluvchi ularni o'zgartirish to'g'risida yozma xabarnoma olgunga qadar dolzarb hisoblanadi.

12.2. Ushbu shartnoma har ikki tomon imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va Qarz oluvchi ushbu Shartnomaga muvofiq Bank oldida olgan barcha majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

12.3. Agar tomonlardan birortasi yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritishni to'xtatgan yoki uning yuridik mavqe'iga boshqa o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, u ushbu shartnoma doirasida boshqa tomonning oldidagi o'z majburiyatlarini o'zining faoliyatini tugatgunga qadar (o'zgartirishlar kiritilgunga qadar) bajarib qo'yishi shart, faqatgina bu majburiyatlar tugatilayotgan (o'zgarish kiritilayotgan) tomonning huquqiy vorisi zimmasiga yuklatilgan holatlar bundan mustasno.

12.4. Ushbu bilan Qarz oluvchi Bank tomonidan kredit tarixini shakllantirish uchun kredit shartnomasining imzolanishi shartlari, taqdim etilgan ta'minot hamda majburiyatlarning bajarilishi bilan bog'liq ma'lumotlarni Kredit axboroti davlat reestri, Kredit byurosi, Garov reestriga taqdim etishga o'z roziligini bildiradi.

12.5. Ushbu shartnomadan yoki u bilan bog'liq holda kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Taraflar tomonidan o'zaro kelishuvlar yo'li bilan hal qilinadi.

Nizolarni o'zaro kelishuvlar yo'li bilan hal qilish imkoni bo'lmagan taqdirda, ushbu shartnoma yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar yoki ushbu shartnomani tuzish, uni ijro qilish, o'zgartirish, bekor qilish, uning haqiqiy emasligiga doir nizolar Da'vogarning ixtiyoriga ko'ra "DS Legal Centre" MCHJ huzuridagi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi yoki fuqarolik ishlari bo'yicha _____ tumanlararo sudi / _____ tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Nizolar "DS Legal Centre" MCHJ huzuridagi Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqilgan taqdirda, ishlar ushbu sudning raisi tomonidan ushbu Hakamlik sudining Qoidalariga muvofiq hal qilinadi. Hakamlik sudi Qarori yakuniy hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

12.6. Tomonlar o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan hollarda, ikki tomonning majburiyatlarini asoslashda bank yozuvlari ustuvorlikka ega.

12.7. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar, ular yozma shaklda tuzilgan va taraflarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan taqdirdagina haqiqiy hisoblanadi.

12.8. Ushbu shartnoma har bir tomon uchun bittadan, jami ikkita asl nusxada tuzildi.

12.9. Mazkur shartnoma bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

12.10. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari asosida Qarz oluvchi ushbu Shartnomani davlat tilida yoki Tomonlar kelishuviga ko'ra boshqa tilda tuzish huquqiga ega ekanligi to'g'risida xabardor etilgan. Ushbu Shartnoma Qarz oluvchining tashabbusi va istagiga ko'ra davlat tilida tuzilgan bo'lib, Qarz oluvchi Shartnomaning barcha shartlarini to'liq tushunganini va ularning huquqiy mazmunini anglaganini tasdiqlaydi.

13. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI, BANK REKVIZITLARI VA IMZOLARI:

BANK:	Qarz oluvchi:
«Asia Alliance Bank» ATB	«_____»
_____Amaliyot	_____
boshqarmasi / MBXO	Manzil: _____
Manzil: _____	_____
_____	STIR: _____ XXTUT: _____
STIR: _____ XXTUT _____	x/r: _____
MFO: _____	_____
Telefon: _____	MFO: _____
_____	Telefon: _____
_____	Rahbar _____
_____	Bosh hisobchi _____
M.O'.	M.O'. (agar mavjud bo'lsa)

1. Ta'minot turlari har bir holat bo'yicha alohida ko'rsatiladi.

2. Toshkent shaxridan tashqarida joylashgan filiallar uchun shartnomaning 12.5-bandida o'sha hududning tegishli sudi ko'rsatiladi.